



G'ARB VA XALQARO "GLOBAL MO'G'ULSHUNOSLIK" TADQIQOTLARIDA CHIG'ATOY ULUSI MUSTAQILLIK DAVRINING YORITILISHI

Shahlo Maxamova

Mustaqil tadqiqotchi

shahlomahamova88@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-9587-9063>

ANNOTATSIYA

Chig'atoy ulusi tarixining 1306–1346-yillardagi mustaqillik davri G'arb va xalqaro "global mo'g'ulshunoslik" tadqiqot maktablari (M. Biran, P. Jackson, J. Paul) misolida kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu maktablarning "mo'g'ul dunyosi" (Pax Mongolica) konsepsiyasidagi ilmiy yondashuvlari qiyosiy o'rganilib, ulus suverenitetining shakllanishi, Kebekxon islohotlari va islomlashuv jarayonlariga berilgan baholar yoritilgan. Muallif G'arb tarixshunosligidagi "de-vassalizatsiya" va "sivilizatsiyaviy transformatsiya" nazariyalarini tahlil qilib, Chig'atoy ulusi mustaqilligining iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy asoslari chuqur ilmiy asoslanganini ko'rsatadi. Maqolada xalqaro mo'g'ulshunoslikning Chig'atoy davrini mintaqaviy suveren davlatchilik evolyutsiyasining muhim bosqichi sifatida baholashdagi fundamental o'rni isbotlangan.

АННОТАЦИЯ

В статье проведен комплексный анализ периода независимости Чагатайского улуса (1306–1346 гг.) на примере исследований западной и международной школ «глобального монголоведения» (М. Биран, П. Джексон, Ю. Пауль). В исследовании сравнительно изучены научные подходы этих школ в рамках концепции «монгольского мира» (Pax Mongolica) к вопросам формирования суверенитета улуса, реформ Кебек-хана и процессов исламизации. Автор, анализируя теории «де-вассализации» и



«цивилизационной трансформации» в западной историографии, показывает, что экономические, административные и правовые основы независимости Чагатайского улуса глубоко обоснованы. В статье доказывается фундаментальная роль международного монголоведения в оценке чагатайского периода как важного этапа эволюции региональной суверенной государственности.

ABSTRACT

The article provides a complex analysis of the independence period of the Chaghatai Khanate (1306–1346) based on the research of Western and international “global Mongol studies” schools (M. Biran, P. Jackson, J. Paul). The study comparatively examines the scientific approaches of these schools within the “Pax Mongolica” concept to the formation of the Khanate's sovereignty, the reforms of Kebek Khan, and the processes of Islamization. The author, analyzing the theories of “de-vassalization” and “civilizational transformation” in Western historiography, shows that the economic, administrative, and legal foundations of the Chaghatai Khanate's independence are deeply substantiated. The article proves the fundamental role of international Mongol studies in evaluating the Chaghatai period as a crucial stage in the evolution of regional sovereign statehood.

Kalit so‘zlar: Chig‘atoy ulusi, global mo‘g‘ulshunoslik, M. Biran, P. Jackson, suverenitet, de-vassalizatsiya, Kebekxon islohotlari, Pax Mongolica.

Ключевые слова: Чагатайский улус, глобальное монголоведение, М. Биран, П. Джексон, суверенитет, де-вассализация, реформы Кебек-хана, Pax Mongolica.

Key words: Chaghatai Khanate, global Mongol studies, M. Biran, P. Jackson, sovereignty, de-vassalization, Kebek Khan's reforms, Pax Mongolica.



KIRISH

Chigʻatoy ulusi tarixini oʻrganishda Gʻarb va xalqaro “global moʻgʻulshunoslik” maktablarining tadqiqotlari alohida metodologik va nazariy ahamiyatga ega. V.V. Bartold va rus sharqshunosligidan farqli oʻlaroq, Gʻarb olimlari (masalan, Mixal Biran, Piter Jekson, Yurgen Paul) Chigʻatoy ulusini “Pax Mongolica (“Moʻgʻul dunyosi”)” yagona tizimining bir qismi sifatida oʻrganadilar. Ular Chigʻatoy davrini “imperiya parchalanishi” nuqtai nazaridan emas, balki “moʻgʻul dunyosi” doirasida yuz bergan “de-vassalizatsiya” (“vassallikdan chiqish”) va “sivilizatsiyaviy transformatsiya” jarayonlari sifatida baholaydilar.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Gʻarb va xalqaro tadqiqotlardagi yangi nazariy yondashuvlarga asoslanib, Chigʻatoy ulusining 1306–1346-yillardagi mustaqilligi chuqur tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – M.Biran tomonidan ilgari surilgan “Chigʻatoy davlatining yuksalishi” konsepsiyasi doirasida Duvaxon, Kebekxon va Tarmashirinxon islohotlariga berilgan baholarni tizimlashtirish va ushbu davrni Markaziy Osiyo davlatchiligi evolyutsiyasining suveren bosqichi sifatida ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Gʻarb va xalqaro moʻgʻulshunoslik tadqiqotlarida mavzu XVIII asrdan buyon katta qiziqish bilan oʻrganilib kelinmoqda. Zamonaviy jahon tarixshunosligida, xususan, Gʻarb, Isroil va Sharqiy Osiyo ilmiy doiralarida Chigʻatoy ulusi tarixini oʻrganishda “Global moʻgʻulshunoslik” deb nomlanuvchi yangi metodologik yoʻnalish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maktab vakillari Chigʻatoy ulusining 1306-1346-yillardagi taraqqiyotini shunchaki hududiy boshqaruv emas, balki **Markaziy Osiyoning trans-regional aloqalar tizimidagi geosiyosiy transformatsiyasi** sifatida talqin etmoqdalar. Gʻarb tadqiqotlarining oʻziga xosligi shundaki, ularda asosiy urgʻu ulus mustaqilligining **sotsial-antropologik va sivilizatsiyaviy jihatlariga**, xususan, moʻgʻul siyosiy elitasining islomlashuvi va mahalliy oʻtroq madaniyat bilan sintezi jarayonlariga qaratilgan. Ushbu



yoʻnalishdagi bahslarda 1306-yilgi mustaqillik – imperiyaning “parchalanishi” emas, balki mintaqaviy barqarorlikni taʼminlagan “Chigʻatoy renessansi”ning boshlanishi sifatida baholanadi.

Z.V.Toʻgʻon jahon miqyosidagi yirik sharqshunos olim boʻlib, uning tadqiqotlarida Chigʻatoy ulusi tarixini **turkiy davlatchilik anʼanalari** va **manbashunoslik tahlili** nuqtai nazaridan oʻrganishda bugungi kunda ham fundamental ahamiyatga ega. Olimning qator tadqiqotlarida Chigʻatoy ulusining 1306-1346-yillardagi mustaqillik davrini oʻziga xos konseptual yondashuv bilan yoritgan¹. U Chigʻatoy ulusi mustaqilligini shunchaki moʻgʻul xonlarining siyosiy hatti-harakati emas, balki mintaqaning **“turklashish va islomlashish”** natijasidagi sivilizatsion ehtiyoji deb baholaydi. Olim Duvaxon va Kebekxon islohotlarini Movarounnahrda qadimiy turkiy davlatchilik anʼanalarini moʻgʻul maʼmuriy tizimi bilan sintez qilishga urinish deb ataydi². Uning fikricha, bu jarayon 1306-yildan soʻng ulusni markaziy Yuan imperiyasidan butunlay ajralib, mustaqillikka aylanishiga sabab boʻlgan.

N.Davlatning “Chigʻatoy davlati” nomli maqolasi Chigʻatoy ulusini Gʻarb va mahalliy tarixshunoslikdan farqli oʻlaroq, islomiy sivilizatsiyaning ajralmas qismi sifatida tahlil qiladi³. Olim Chigʻatoy ulusi mustaqilligini Duvaxon davridagi siyosiy harakatlar bilan boshlasa-da, bu jarayon Tarmashirinxon davridagi islomlashuv bilan yakuniga yetganini taʼkidlaydi. Uning fikricha, islomni qabul qilish Chigʻatoy ulusini boshqa moʻgʻul uluslaridan ajratib turuvchi asosiy mafkuraviy chegara boʻldi.

A.Yuvali oʻz tadqiqotida Chigʻatoy ulusining vujudga kelishidan parchalanishigacha boʻlgan davrni **islomiy davlatchilik ierarxiyasi va sulolaviy**

¹ Togan Z.V. Mogollar, Çengiz ve Türklük. – İstanbul. 1941.; Oʻsha mual. Umumi Türk Tarihine Giriş. C.1. En Eski devirlerden 16 asra kadar. – İstanbul, 1981.

² Togan Z.V. Umumi Türk Tarihine Giriş. – S. 215.

³ Devlet N. “Çağatay Devleti”// Doğuştan Günümüze Büyük İslâm Tarihi IX. – İstanbul, 1988. – S. 301-310.



huquq nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Muallif Chigʻatoy ulusi mustaqilligini 1306-yilgi Duvaxon gʻalabasi bilan bogʻlaydi va buni Chigʻatoy xonadonining mintaqada **“mutloq hokimiyatni qayta tiklashi”** deb baholab, bu davrdagi siyosiy harakatlarni ulusning Pekindagi Yuan imperiyasidan faqat ramziy jihatdan bogʻliq, amalda esa toʻlaqonli suveren davlatga aylanishi deb ataydi⁴.

S.Hizmatli oʻzining Chigʻatoy davlati nomli maqolasida ulusning 1306–1346-yillardagi tarixini mintaqada **turkiy-islomiy oʻzlikning tantanasi** sifatida tahlil qilgan⁵. Olim Chigʻatoy ulusi mustaqilligini shunchaki siyosiy ajralish emas, balki mintaqaning tub aholisi boʻlgan turkiy xalqlarning moʻgʻul siyosiy elitesini **“turklashtirishi”** natijasi deb baholaydi. Uning fikricha, Duvaxon va vorislari davrida ulus boshqaruvida turk tili va islomiy anʼanalar ustuvorlikka ega boʻlgani uning Yuan imperiyasidan mafkuraviy uzilishini taʼminladi.

M.Kafalining tadqiqotlarida Chigʻatoy ulusining 1306-1346-yillardagi tarixini nafaqat siyosiy xronologiya, balki **turk-moʻgʻul urugʻ-qabila tizimining transformatsiyasi** va suveren davlatchilikka oʻtish jarayoni sifatida tahlil qiladi. Olim ulus mustaqilligini shunchaki xonlarning xohishi emas, balki mintaqada shakllangan yangi siyosiy elita – **“Chigʻatoy ulusi xalqi”** manfaatlari natijasi deb baholaydi⁶. Ishda Duvaxon davridagi islohotlarni ulusning tashqi vasiylikdan qutulib, oʻzining mustaqil ijtimoiy-siyosiy tayanchiga ega boʻlishi deb ataydi. *Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda Chigʻatoy ulusi mustaqilligini tadqiq etishda urugʻ-qabila boshqaruvi va markaziy hokimiyat sintezi metodini qoʻllaydi. Olim 1306–1346-yillardagi davrni mintaqada yangi turkiy-islomiy siyosiy elitaning shakllanishi va ulus suverenitetining ijtimoiy bazasi yaratilishi sifatida*

⁴ Yuvali A. “Çağatay Hanlığı”, DiA, VIII, 1993. – S. 177-178.

⁵ Hizmetli S. Çağatay Devleti // Türkler. VIII. – Ankara, 2002. – S. 355-358.

⁶ Kafalı M. Çağatay Hanlığı – Ankara, 2004. – S. 45.



asoslaydi. Uning xulosalari dissertatsiyaning II va III boblaridagi ma'muriy va ijtimoiy tahlillar uchun o'ta qimmatlidir.

I.Eryılmaz o'z maqolasida mo'g'ullarning islomni qabul qilishini diniy e'tiqod o'zgarishi emas, balki **davlat suverenitetini mustahkamlashning strategik quroli** sifatida tahlil qiladi. Muallif Duvaxon va vorislari davridagi islomlashuv harakatlarini tadqiq etar ekan, bu jarayon ulusni Markaziy Yuan imperiyasidan mafkuraviy jihatdan uzilishini ta'minlaganini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, Chig'atoy xonlarining islomni qabul qilishi ularga Movarounnahrning o'troq aholisi va ulamolari ustidan qonuniy hukmronlik qilish huquqini berdi. Bu esa ulus mustaqilligining ichki barqarorligini ta'minlagan⁷.

So'nggi yillarda zamonaviy turk va uyg'ur olimlari tadqiqotlarida Chig'atoy ulusi mavzusi dolzarbligini yuqotmay kelmoqda. Jumladan, O'.Go'k va O'.Turker, Ch.Kaya, F.Orta va boshqalar shular jumlasidandir⁸. Ularda Chig'atoy ulusi tarixi asosan **geosiyosiy diplomatiya, shahar madaniyati va etnomadaniy transformatsiya** prizmasidan tahlil etilgan. Xususan, ularning tadqiqotlarida 1306-1346 yillarda Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy hayotida turk-islom an'analarining qayta tiklanishi hamda Kebekxon islohotlari natijasida mintaqada "o'troq davlatchilik modeli"ning shakllanish bosqichi sifatida baholanadi. Ushbu mualliflar Chig'atoy ulusi mustaqilligini shunchaki siyosiy ajralish emas, balki mintaqaning Yuan imperiyasidan mafkuraviy va iqtisodiy jihatdan butunlay uzilib, mustaqil sivilizatsiyaviy qutbga aylanishi sifatida ilmiy asoslab berganlar.

Shuningdek, mavzu yapon, mo'g'ul, xitoy, koreys olimlari tomonidan ham qisman tadqiq qilingan. Jumladan, yapon olimi K.Kazixude Chig'atoy ulusi va

⁷ Eryılmaz I. Çağatay hanlığı döneminde moğollar arasında islamîyet // Uluslararası Tarih Araştırmaları Dergisi. The Journal of International History Researches. 5(1). – 2021. – S. 71-84.

⁸ Ömer Gök, Özgür Türker, "Çağatay Hanlığı'nın Dağılımı Sonrası Tuğluk Timur Han'ın Merkezileşme Politikası ve Emir Kamerüddin İsyanı", Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, 7(1). – İstanbul, 2022. – S. 112-128.; Kaya Ç. Çağatay hanlığı - büyük moğol kağanlı arasındaki siyasi ilişkiler (Başlangıçtan 1320 Yılına Kadar). – 2023. – 250 s.; Orta F. Çağatay hanlığı'nda vergi.// Anasay. 8, sayı 28. – İstanbul, 2024. – S. 1-10.



mo'g'ul davlatlari boshqaruviga oid tadqiqotlarida asosiy urg'uni **“darug'a”**, **“noib”** va **“vazir”** kabi institutlarning vakolatlariga qaratgan. Olim 1306-1346-yillardagi davrni Chig'atoy ulusi boshqaruv apparatining “harbiylashtirilgan tizimdan fuqarolik tizimiga o'tish bosqichi” deb baholaydi. U Kebekxon islohotlarini tadqiq etar ekan, tumanlar tizimining joriy etilishi mahalliy aholini boshqarishda mo'g'ul harbiy elitasi va mahalliy musulmon byurokratiyasi o'rtasidagi oltin muvozanatni ta'minlaganini isbotlaydi⁹.

S.S.Enxchimegning tadqiqotlari Chig'atoy ulusi tarixini **siyosiy jarayonlar** va **genealogiya** tahlili prizmasidan o'rganishda o'ta muhimdir. Olim ulusning 1306-1346-yillardagi mustaqillik davrini **mo'g'ul davlatchilik an'analari** nuqtai nazaridan tahlil qilgan. U Duvaxon davridagi 1304-yilgi sulh va 1306-yilgi mustaqillikni nafaqat harbiy g'alaba, balki **“Chingiziylar huquqi tizimidagi suverenitetning tan olinishi”** deb baholaydi. Olimning fikricha, Duvaxon Yuan imperatori bilan sulh tuzib, “Buyuk ulus” tarkibida o'z xonadonining **eksklyuziv hukmronlik huquqini** tasdiqlatgan. Bu esa ulusni amalda mustaqil, huquqiy jihatdan esa teng huquqli sherikka aylantirgan¹⁰.

Xitoy olimi L.Yingsheng ko'plab maqolalarida Chig'atoy ulusining 1306-1346-yillardagi tarixini imperiya markazi bilan o'zaro aloqalar va mintaqaviy suverenitet kontekstida tahlil qilgan. Olim 1304-yildagi umummo'g'ul tinchlik shartnomasini tadqiq qilib, buni Chig'atoy ulusi uchun **“tashqi vasiylikdan qutulish va legitim mustaqillikka erishish”** nuqtasi deb baholaydi. Uning fikricha, Duvaxon Yuan imperatori bilan sulh tuzib, Pekinning ramziy ustunligini tan olish

⁹ Kazuhide K. Kebek and Yasawur – The Establishment of the Chaghatai Khanate // Memoires of the Research Department of the Toyo Bunko. № 49. – 1991. – P. 97-118.

¹⁰ Энхчимег Ц.Ц. Чагатайский улус (1221-1346). Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Улан-Удэ, 2004. – 24 с.; **Enkhchimeg S.** Chaghadai-yin Ulus (The Chagatai Ulus). – Ulaanbaatar: Institute of History, Mongolian Academy of Sciences, 2006. – 186 s.



evaziga ulusning ichki va tashqi ishlarida mutloq mustaqillikni qo‘lga kiritgan¹¹. Olim bu jarayonni “vassallikdan ittifoqdoshlikka o‘tish” deb tavsiflaydi. *L.Yingsheng tadqiqotlarining ahamiyati shundaki, u Chig‘atoy ulusi mustaqilligini tadqiq etishda Xitoy manbalari va trans-kontinental aloqalar metodini qo‘llaydi. Olim 1306-1346-yillardagi davrni Chig‘atoy ulusining Yuan bilan o‘zaro manfaatli va teng huquqli diplomatik munosabatlar o‘rnatgan davri sifatida asoslaydi.*

G‘arb olimlarining mo‘g‘ullar tarixiga aloqador tadqiqotlari XVIII asrdan boshlangan. Ammo, ularning aksariyatida Chig‘atoy ulusining mustaqillik davri umumiy tarzda eslatilgan, xolos. XIX asrning oxirlariga oid E.Bretshnaydarning fundamental asarida Chig‘atoy ulusining hududiy chegaralari va xonlar shajarasi Xitoy solnomalari asosida tahlil qilgan¹². Olim birinchilardan bo‘lib Chig‘atoy ulusi mustaqillik davrini yoritishda “**Yuan-shi**” (Yuan sulolasi tarixi) va xitoylik sayyohlarning ma’lumotlarini forsiy manbalar bilan qiyoslagan. Shuningdek, Duvaxon va vorislari davridagi siyosiy o‘zgarishlarni Xitoy manbalaridagi “G‘arbiy hududlar” (Xiyu) xronikasi orqali tasdiqlaydi. Bu ulus mustaqilligining nafaqat ichki, balki imperiya markazi tomonidan ham tan olinganligini isbotlovchi muhim dalildir¹³. U ulusning Movarounnahr va Mog‘uliston qismlari o‘rtasidagi hududiy chegaralarni aniqlashda ham katta hissa qo‘shgan. Olim ulusning markazi Movarounnahrqa ko‘chganini Xitoy manbalaridagi shaharlar (Samarqand, Buxoro, O‘tror) tavsifi orqali asoslaydi. Bu ulus mustaqilligining iqtisodiy-geografik o‘zagi Movarounnahr bo‘lganini ko‘rsatadi.

¹¹ Yingsheng L. Lun Talasi huiyi (“On the Talas quriltai”) / Yuan shi lun cong. – 1992. № 4. – P. 256–265; O‘sha mual. Xibei minzu shi yu Chahatai Hanguo shi yanjiu (History of the Northwestern Minorities and Studies in Chaghadaid History). – Nanjing, 1994; O‘sha mual. War nad Peace between the Yuan Dynasty and the Chaghadaid Khanate (1312-1323) // Mongols, Turks and others. – Brill-Leiden-Boston, 2005. – P. 339-359; O‘sha mual. Chahatai hanguo shi yanjiu (Studies on the Chaghataid khanate). – Shanghai, 2006.

¹² Bretschneider E. Mediaeval researches from Eastern Asiatic Sources: Fragments towards the knowledge of the geography and history of Central and Western Asia from the 13th to the 17th century. – London, 1888. – Vol. I. 348 p.; Vol. II. 364 p.

¹³ Bretschneider E. Mediaeval researches from Eastern Asiatic Sources. II. – P. 226.



E.E.Oliverning 1888-yilda nufuzli “Qirollik Osiyo jamiyati jurnali”da e’lon qilingan maqolasida XIX asr G’arb tarixshunosligida Chig’atoy ulusi ilk bor mustaqil siyosiy tizim sifatida tahlil qilingan. Unda Duvaxon va vorislari davridagi ulus Yuan imperiyasidan butunlay ajralib chiqqan mustaqil davlat deb baholanadi. Olim Duvaxonning 1306-yildagi siyosiy yutuqlarini tadqiq etib, buni Chig’atoy xonadonining mintaqada “mutloq va qonuniy hukmronlikni tiklashi” deb ataydi. Uning fikricha, aynan shu davrda ulus o’zining mustaqil tashqi siyosatiga ega bo’lgan¹⁴. Olim Kebekxon poytaxtni Qarshiga ko’chirishi va tumanlar tizimini joriy etishini **“ko’chmanchi mo’g’ullarning o’troq sivilizatsiya bilan uyg’unlashuvi”** edi deydi¹⁵. Shuningdek, Kebekxon mintaqada tartib va intizom o’rnatgan islohotchi hukmdor sifatida tasvirlangan. Ishning *ilmiy ahamiyati shundaki, u g’arb tarixshunosligida birinchilardan bo’lib Chig’atoy ulusi tarixini shunchaki “imperiya bo’lagi” emas, balki mustaqil davlatchilik tajribasi sifatida tahlil qiladi.*

XX asr davomida mavzuning ayrim jihatlari R.Grusse, J.Boyl, G.Doerfer, B.Shpuler, J.Aubin, P.Jekson, J.Sonders, D.Morgan, J.Fletcher, T.Ollsen kabi o’nlab olimlarning asarlarida ham qisman uchraydi. Ular Chig’atoy ulusi tarixini “Global mo’g’ulshunoslik” doirasida tahlil qilib, uni avvalgi rus yoki sharq maktablaridan farqli o’laroq, **mintaqaviy transformatsiya va sivilizatsiyalar integratsiyasi** nuqtai nazaridan o’rganganlar. Jumladan, **R.Grousset va J.Boyllarning** umumiy mo’g’ul tarixi bo’yicha asarlarida Chig’atoy ulusi xronologiyasini, ayniqsa 1306-1346 yillardagi siyosiy voqealarni tizimlashtirgan. Grousset ko’proq siyosiy va harbiy jihatlarga e’tibor qaratgan bo’lsa, Boyle forsiy manbalar tarjimalari orqali

¹⁴ Oliver E.E. The Chaghatai Mughals. // Journal of the Royal Asiatic Society, 20. – 1888. – P. 82.

¹⁵ Oliver E.E. The Chaghatai Mughals. – P. 112.



faktologik bazani kengaytirgan. Ular Kebekxon davrini “qisqa barqarorlik” davri deb atashgan¹⁶.

G.Doerfer va B.Shpuler kabi olimlar lingvistik va institutsional tahlil ustida ishlagan¹⁷. Doerfer mo‘g‘ul davlatlaridagi turkiy va forsiy atamalarni o‘rganib, Kebekxon davridagi ma‘muriy atamalarning funksiyasini aniqlagan. Shpuler esa islom dunyosidagi mo‘g‘ul hukmronligini tizimlashtirib, Chig‘atoy ulusini islom davlatiga aylanish jarayonini tahlil qilgan.

J.Aubin Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorix” asarini ilmiy muomalaga kiritish bilan birga, ulusdagi ichki ixtiloflar, ayniqsa, Tarmashiringa qarshi chiqqan amirlarning rolini chuqur o‘rgangan. U bu davrni “amirlar hokimiyatining yuksalishi” deb aytadi¹⁸.

P.Jekson, J.Sonders va D.Morgan kabi olimlar Chig‘atoy ulusi tarixini “Islom dunyosi” kontekstida o‘rganganlar¹⁹. Ular Tarmashirin davridagi islomlashuvni davlatning mafkuraviy tanlovi sifatida ko‘rsatib, bu jarayon davlat suverenitetini mustahkamlaganini ta’kidlaydi.

J.Fletcher va T.Ollsen kabi olimlar Xitoy manbalari (“Yuan-shi”) asosida Chig‘atoy ulusi va Yuan imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik va iqtisodiy aloqalarni

¹⁶ Grousset R. Le conquérant du monde (vie de Gengis-Khan). Edited by A. Michel. – Paris, 1944. – 380 p.; Груссе Р. История Степей. История Средней Азии. – Казань, 2012. – 527 с.; Boyle J.A. On the Titles Given in Juvaini to Certain Mongolian Princes // HJAS. № 19. – 1956. – P. 146-154; O’sha mual. Juvaini ‘Ala’-ad-Din ‘Ata-Malik. The History of the World Conqueror. – Cambridge, 1958; O’sha mual. Juvayni and Rashid al-Din as sources on the history of the Mongols // Historians of the Middle East. – London, 1962. – P. 133-137; O’sha mual. The Successors of Genghis Khan. – New York, 1971; O’sha mual. The Mongol World Empire (1206-1370). – London, 1977.

¹⁷ Doerfer G. Türkische und Mongolische Elemente im Neupersischen. Band I: Mongolische Element in Neupersischen. – Wiesbaden, 1963. – P. 264-266.; Spuler B. History of the Mongols. Based on Eastern and Western Accounts of the 13th 14 th Centuries. – Berkeley, 1972.; Шпүлер Б. Золотая Орда. Монголы в России. 1223-1502 гг. Пер. М.С. Гатина. – Казань, 2016. – 500 с.

¹⁸ Aubin J. Le khanat de Čağatai et le Khorosan (1334-1380) // Turcica. № 8. – 1976. – S. 43-55.

¹⁹ Jackson P. The dissolution of the Mongol empire // CAJ. Vol. XXII. № 3-4. – 1978. – P. 186-244; O’sha mual. The Mongols and the Faith of the Conquered // Mongols, Turks and Others: Eurasian Nomads and the Outside World. – Leiden: Brill, 2005. P. 245-290.; Сондерс Дж. Дж. История монгольских завоеваний. Великая империя кочевников от основания до упадка. Пер. Л.А.Игоровского. – М., 2019. – 285 с.; Morgan D.O. Mongols. – Oxford, 1986.



o‘rganganlar²⁰. Ular 1306–1346 yillardagi munosabatlarni teng huquqli diplomatik aloqalar sifatida baholagan.

Xalqaro “Global mo‘g‘ulshunoslik” maktabining eng zamonaviy vakillari M.Biran, R.Amitay, N.Dalkesen, P.Yurgen, de Nikola kabi tadqiqotchilar ham ulus tarixining turli jihatlarini tadqiq qilganlar. Mazkur tadqiqotlar orasida M.Biranga tegishlisi ancha salmoqli²¹. **M.Biran** Chig‘atoy ulusi tarixining eng yirik zamonaviy tadqiqotchisi sifatida 1306-1346-yillarni ulus tarixidagi “**Chig‘atoy renessansi**” deb ataydi. U Tarmashirinxon davridagi islomlashuv jarayonini tadqiq etib, buni davlatning mafkuraviy suvereniteti va o‘troq sivilizatsiyaga integratsiyalashuvining cho‘qqisi deb baholaydi²².

R.Amitay Chig‘atoy ulusining Elxoniylar va Mamluklar bilan munosabatlarini tadqiq etib, ulusning **mustaqil tashqi siyosat yuritish quvvatini** tahlil qiladi. U 1306-yildan keyingi davrni Markaziy Osiyoda yangi diplomatik muvozanat o‘rnatilgan bosqich sifatida baholaydi²³.

N.Dalkesen Chig‘atoy ulusida **ijtimoiy hayot va ayollarning o‘rni** masalasini tadqiq etgan. Olim 1306-1346-yillardagi saroy hayotida mo‘g‘ul an‘analari va

²⁰ Fletcher. J. The Mongols: Ecological and Social Perspectives // HJAS. № 46/1 – London, 1986. – P. 11-50.; Allsen T.T. Mongol imperialism. The policies of the Grand Qan Monke in China, Russia and the Islamic Lands, 1251-1259. – Berkeley and Los-Angeles, 1987. – 278 p.

²¹ Biran M. Qaidu and the Rise of the Independent Mongol State in Central Asia. – Richmond, Great Britain: Curzon Press, 1997. – x+198 p; O’sha mual. The Chaghadaids and Islam: The conversion of Tarmashirin khan (1331-1334) // Journal of the Oriental Society. – 2002. - № 122.4. – P. 742-752; O’sha mual. The Mongol Transformation: from the Steppe to Eurasian Empire // Medieval Encounters. – 2004. № 10. – P. 338-361; O’sha mual. Central Asia from the conquest of Chinggis Khan to the rise of Tamerlane: The Ögodeied and Chaghadaid realms // Cambridge history of Inner Asia. Vol. 2: The Chinggisid Age. – Cambridge, 2009. – P. 46-66.; O’sha mual. Rulers and City Life in Mongol Central Asia (1220-1370)// Turko-Mongol Rulers, Cities and City Life. – Brill-Leiden-Boston, – 2013. – P. 257-283.; O’sha mual. Chaghadaid Diplomacy and Chancellery Practices: Some Preliminary Remarks // Xiyu yanjiu. №2. 2014. – P. 92-115. O’sha mual. Chaghadaid – Golden Horde Relations (1260-1370)// Золотая Орда в мировой истории. – Казан, 2016. – С. 363-367.

²² Biran Michal. The Chaghadaids and Islam. – P. 742–752.

²³ Amitay R. The Mongols in the Islamic Lands. – Aldershot: Ashgate, 2007. – P. 150–165.



islomiy qadriyatlar sintezini xotin-qizlarning ijtimoiy maqomi misolida tahlil qiladi²⁴.

Yu.Paul Chigʻatoy ulusi davridagi **ijtimoiy tabaqalanish va mahalliy amirlarning kuchayishi** jarayonini tadqiq etadi. U Kebekxon islohotlarini mahalliy turkiy zodagonlarni davlat boshqaruviga jalb etishning bosh mexanizmi deb baholaydi²⁵.

B.de Nicolaning tadqiqotlari Elxoniylar davlatiga bagʻishlangan boʻlsa-da, ishda **Chigʻatoy ulusi** ayollari va malikalarining ijtimoiy-siyosiy mavqeyi bilan qiyosiy tahlillar ham keltirilgan. Muallif Chigʻatoy ulusi malikalarining shaxsiy “ordu”lari va oʻz daromad manbalariga ega boʻlganini taʼkidlab, aynan 1306–1335-yillardagi davrni xotunlarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi taʼsiri eng yuqori boʻlgan bosqich deb baholaydi²⁶. Uning fikricha, malikalar nafaqat xonadon vakillari, balki maʼmuriy va diplomatik aloqalarda vositachi boʻlgan mustaqil subʼektlardir. Xullas, xalqaro “Global moʻgʻulshunoslik” maktabi zamonaviy vakillarining tadqiqotlari Chigʻatoy ulusining 1306–1346 yillardagi faoliyatini zamonaviy sotsial-antropologik va geosiyosiy tahlillar asosida “Chigʻatoy renessansi” hamda sivilizatsiyalararo integratsiyaning oliy nuqtasi sifatida baholaydi. Mazkur maktab doirasidagi konseptual diskurslar ulus mustaqilligini nafaqat siyosiy ajralish, balki mintaqaviy elitaning shakllanishi, islomlashuv jarayonidagi huquqiy transformatsiya va Markaziy Osiyoning trans-regional aloqalardagi suveren subʼyektga aylanishi sifatida ilmiy asoslab berdi.

²⁴ Dalkesen N. Gender roles and women’s status in Central Asia and Anatolia between the thirteenth and sixteenth centuries. PhD. Department of History. – Ankara, 2007. – 352 p.

²⁵ Paul Jürgen. *The State and the Military Organization in the Chaghatai Khanate*. – Leiden: Brill, 2016. – P. 210–215.

²⁶ De Nicola B. The Queen of the Chaghataids: Orghina Khatun and the rule of Central Asia // Journal of the Royal Asiatic Society, 2016. – P. 107-120.; Oʻsha mual. Women in Mongol Iran: The Khatuns, 1206-1335. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2017. – 309 p.



Xulosa qilib aytganda, G‘arb va xalqaro “global mo‘g‘ulshunoslik” maktabi vakillari tadqiqotlarini tahlil qilish natijasida Chig‘atoy ulusi mustaqilligi davri bo‘yicha quyidagi fundamental xulosalarga kelindi: **Birinchidan**, xalqaro mo‘g‘ulshunoslik, ayniqsa Mixal Biranning ishlari, Chig‘atoy ulusi mustaqilligini “Pax Mongolica” doirasida yuz bergan tabiiy “de-vassalizatsiya” jarayoni sifatida ilmiy asosladi. Bu yondashuv Chig‘atoy davlatining suverenitetini tasdiqlovchi asosiy dalil bo‘lib, uni Rossiya yoki O‘rta Osiyo sovet maktablaridagi “inqiroz” talqinidan tubdan farq qiladi. **Ikkinchidan**, G‘arb tadqiqotchilari, xususan Piter Jekson va Yurgen Paul, Kebekxon islohotlari va Tarmashirinxonning islomlashuv siyosatini “sivilizatsiyaviy transformatsiya” nuqtai nazaridan o‘rganganlar. Ular pul islohoti va urbanizatsiyani ulusning iqtisodiy mustaqilligi hamda o‘troq islomiy sivilizatsiyaga to‘liq integratsiyalashuvining asosi sifatida baholaganlar. Umuman olganda, G‘arb va xalqaro mo‘g‘ulshunoslik tadqiqotlari Chig‘atoy ulusi mustaqilligini mintaq tarixidagi markazlashgan, suveren va institutsional jihatdan barqaror davlat qurilishi bosqichi sifatida e‘tirof etish imkonini beradi. Bu davr tajribasi zamonaviy Markaziy Osiyo davlatchiligining tarixiy ildizlarini xalqaro miqyosda asoslashda muhim ilmiy baza bo‘lib xizmat qiladi.